

YOSHLARNI KASB TANLASHLARIDA QIZIQISH VA QOBILIYATLARINI HISOBGA OLISH

Ashurova Yulduz Zoirovna

*Buxoro viloyati Romitan
tumani 22-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarni kasb tanlash jarayonida qiziqish va qobiliyatlarning psixologik ahamiyati, kasbiy yo‘naltirish usullari hamda to‘g‘ri kasb tanlashning shaxs rivojiga ta‘siri yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va psixologik xizmatning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, qiziqish, qobiliyat, yoshlar psixologiyasi, kasbiy yo‘naltirish, motivatsiya, shaxs rivojlanishi, psixologik yondashuv.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish dolzarb psixologik va pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Kasb tanlash inson hayotining kelajakdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim jarayondir. Kasb tanlashda shaxsning qiziqishi va qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Qiziqish insonni ma‘lum faoliyatga jalb qilsa, qobiliyat esa ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

Psixologik jihatdan har bir yosh o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega. Shu sababli kasb tanlashda umumiy yondashuv emas, balki shaxsiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning qiziqishlari ularning ichki motivatsiyasini shakllantiradi. Agar tanlangan kasb qiziqishga mos bo‘lsa, shaxsda mehnatga bo‘lgan ishtiyoq ortadi. Qobiliyatlarni aniqlashda psixologik testlar, kuzatuv va suhbat usullari keng qo‘llaniladi. Bu usullar o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Oila kasb tanlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalar farzandining qiziqish va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Maktab va o‘qituvchilar ham kasbiy yo‘naltirishda muhim o‘rin tutadi. Ular o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlab, to‘g‘ri maslahat berishlari zarur. Psixologik jihatdan noto‘g‘ri kasb tanlash kelajakda qoniqmaslik va stress holatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli ongli qaror qabul qilish muhimdir.

Kasbiy yo‘naltirishda amaliy mashg‘ulotlar, kasb egalari bilan uchrashuvlar va treninglar samarali hisoblanadi. Bu o‘quvchilarda real tasavvur shakllantiradi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish - o‘quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog‘liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik

qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy institutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari va boshqalar asosiy vazifasidir.

Kasb tanlashga yo'naltirish davlatimiz tizimidan iborat bo'lib inson tomonidan tanlanadi, o'z hayot yo'lining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi, u turmushda o'z o'rnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

- kasb - hunar maorifi bilan shug'ullanish:
- radio, televideniye, kino, matbuotda tashviqot qilish;
- kasb yuzasidan maslahatlar; kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Kasb - ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadigan, davlatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, bajaruvchiga iqtisodiy foyda keltirishi imkoniyati mavjud bo'lgan (shaxsning) alohida faoliyat turidir.

Kasbning «tayyorgarlik» tamoyili. Kasb sohasida «tayyorgarlik» tushunchasi ta'limni anglatadi. Har qanday kasbni har qanday inson bajarib ketavermaydi. Qaysidir bir kasbga ko'proq, qaysidir kasbga ozroq talablar qo'yiladi, ishchi bunday talablarga javob berishi uchun ta'lim olishi zarur. Qaysidir bir kasbga davlat ta'lim muassasalarida tayyorgarlikdan o'tish talab etilsa, qaysidir kasbga nodavlat ta'lim muassasalarida yoki biror ustozga shogird tushgan holda tayyorgarlikdan o'tiladi. Har bir kasb egasi uchun amalga oshiriladigan xatti-harakatlar majmui mavjud. Masalan: sartarosh soch olish uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlarni, duradgor yog'ochdan talab etiladigan narsalarni yasash uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlarni, xuddi shunday vrach, kosmonavt va boshqa kasb vakillari ham o'zlariga yuklangan, talab etilgan xatti-harakatlarni bajarishi lozim bo'ladi.

Kasbning «qonuniyligi» tamoyili. Kasbning ta'rifida qayd etib o'tganimizdek uni faoliyat turi dedik. Faoliyat har xil bo'lishi mumkin. Eng asosiysi ular qonunlarda taqiqlanmagan bo'lishi zarur. Barchamizga ma'lumki, qonunlarda jinoyatni keltirib chiqaradigan barcha faoliyat turlari bilan shug'ullanish man etilgan. Qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanish mumkin emasligini bilib olishimiz uchun, albatta, birinchi o'rinda tegishli qonun hujjatlari bilan tanishib chiqishimiz zarur. Lekin 14-18 yoshli o'quvchilar uchun qonun hujjatlarini o'rganib chiqish ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Bunday holatlarda ota-onalarimiz va eng asosiysi o'qituvchilarimizning bu borada beradigan maslahatlari katta yordam berishi mumkin.

Kasbning «foydalilik» tamoyili. Kasb pul ko'rinishida katta foyda keltirishi mumkin, lekin bunday foydani olish uchun sarf etilayotgan sog'liq va vaqtni ham inobatga olish zarur ekan.

Kasbning foydaliligida e'tiborga olinadigan jihatlar:

1. Inson tanasiga ishlayotgan muhitning ta'siri (shovqin, titrash yoki tebranish, yoqimsiz gazlar va boshqa ta'sirlar).

2. Insonning o'z odatlari va boshqa ko'nikmalarini, muhitni, yaqin do'stlarini, yashash joyini o'zgartirishga majbur bo'lishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ruhiy kechinmalar.

3 Inson o'z oilasining tirikchiligini ta'minlash, ish joyiga qatnashi, alohida kiyim, anjomlar sotib olishidagi moliyaviy xarajatlar tushuniladi.

Kasbning «ixtiyoriylik» tamoyili. Har kim o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishda erkindir, faqat bunday erkinlik boshqalarning huquqlarini poymol etmasa bo'lgani. Kasb tanlashda esa erkinlikni jamiyat beradi, boshqacha qilib aytsak, siz jamiyatning mehnat bozorida mavjud bo'lgan kasblardan birini tanlashingiz zarur bo'ladi. Tanlov tushunchasi kasb tushunchasi singari kunlik faoliyatimizda doimiy qo'llab kelinadi. Tanlovni hayotimizda ko'p marta amalga oshirganmiz. Lekin ushbu tushunchaga ham sinchkovlik bilan e'tibor bersak, o'rganishimiz lozim bo'lgan jihatlar ko'zga tashlanadi. Kasb sohasida tanlov shartlarini ishlab chiqish aytarli darajada qunt va bilimni talab etadi. Buning uchun o'zingizda mavjud qiziqish, qobiliyatni aniqlashingiz, so'ng ishga joylashish imkoniyatini belgilab olishingiz zarur bo'ladi.

Kasbning «alohidalik» tamoyili. Bu tamoyil bir kasbni ikkinchisidan farqlashda ishlatiladi. Odatda, aynan bir xil maqsadli faoliyat ikkita kasbda bajarilmaydi. Kasblar oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, ularda bajariladigan ishlar va vazifalar bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, uchuvchi, taksi haydovchisi va teplovoz mashinisti kasblari. Uchala holatda ham inson biror mexanizm (samolyot, avtomobil va teplovoz)ni belgilangan qoidalar asosida boshqaradi. Agar yanada o'xshashlikni keltirmoqchi bo'lsak, uchala mexanizm ham yo'lovchilarni bir manzildan boshqasiga eltib qo'yish uchun xizmat qiladi. Lekin nimagadir ular bajarayotgan faoliyatlarga boshqa-boshqa nom berilgan: uchuvchi, taksist, mashinist. So'z yuritilayotgan kasblarni boshqalardan ajratib turuvchi narsa - ular faoliyat yuritayotgan muhitdir: uchuvchi mexanizmni, ya'ni samolyotning havoda boshqaruvini ta'minlashi zarur, taksist mexanizmni, ya'ni avtomobilni shaharning tiqilinch ko'chalaridan boshqaruvini ta'minlashi kerak, mashinist esa bahaybat teplovozni temir yo'ldan boshqaruvini ta'minlashi kerak. Har bir muhit boshqasidan farq qiladi va undagi xatti-harakatlar insondan butunlay boshqacha fikrlashni talab etadi. Demak, so'z yuritilayotgan kasblarning maqsadi belgilangan muhitda boshqaruvni ta'minlashdan iborat ekan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kasb tanlashda qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. Oila, maktab va psixolog hamkorligi orqali to‘g‘ri kasbiy yo‘nalishni tanlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muslimov N.A., Mullahmetov R. Kasb tanlashga yo‘llash. Toshkent. 2007
2. Boltaboyev S.S., Tolipov O‘. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari kasbga yo‘naltirish o‘quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha metodik tavsiyanoma. Toshkent.2000.
3. Jo‘rayev R.X., Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. Toshkent, Fan. 2004.120 b.
4. Tolipov O‘.Q. Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. Toshkent. O‘zPFITI.2004. 32 b.
5. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). Дардан ташқари машғулотларда ўқувчилар касбий тарбиясини шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари. *Физико-технологического образования, 1(1)*
6. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришни такомиллаштириш технологияси. *Физико-технологического образования, 1(1)*